

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Rozmamatova Mexriniso

*Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Bu maqolamda boshlang'ich sinflarda matematika fanidan bolalarga qo'shimcha bilim berish usullari haqida fikr va mulohazalar bildiriladi.*

Kalit so'zlar: *dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, matematik soat va o'n minutliklar, matematik matbuot, mental arifmetikasi*

Kirish: Fan va texnologiyalar zamonida har bir sohada eskicha an'analar asosida yangi marralarni zabt etib bo'lmaydi. Shu jumladan ,Boshlang'ich ta'lim jarayonida ham faqatgina o'qituvchi-gapiruvchi, o'quvchi esa tinglovchi bo'lib qolishi hech qanday samara bermaydi. Hozirgi davrda dars jarayonlarini qiziqarli shakllantirish bevosita o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Darslarning yaxshi tashkil etilishi , o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, darslarning samarali bo'lishi o'qituvchining topqirligiga va yaratuvchanligiga asoslanadi. Shuningdek , nafaqat dars jarayonini, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarni ham aktiv metodlar asosida shakllantirish kerak . Misol tariqasida , Matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishni ko'rib chiqsak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barchamizga ma'lumki, hozirda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni tashkil etishning ikki xil shakli mavjud:

1. Dars
2. Darsdan tashqari mashg'ulotlar.

Dars — maktab ta'limining asosiy tashkiliy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbirdir. Matematikadan o'quv ishlarini tashkil etishni darsdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy vazifalari:


- o'quvchilarning bilimlarini, amaliy malakalarini chuqurlashtirish va kengaytirish;
- mantiqiy tafakkurni, topqirlikni, matematik ziyraklikni rivojlantirish;
- iqtidorli va qobiliyatli bolalarni aniqlash va ularni yanada o'sishiga yordam berish;
- matematika faniga qiziqishini shakllantirish;[1]

Darsdan tashqari mashg'ulotlar- O'qituvchi tomonidan reja asosida shakllantirilgan, umumiy bilimlarni o'zida mujassam etgan, dars jarayonini takrorlamaydigan mashg'ulot turi. Ko'pchilik pedagoglarimiz "Darsdan

tashqari mashg'ulotlar" deganda faqat fan to'garaklarlarinigina tushunadilar. Lekin sinfdan tashqari ishlar deganimizda o'quvchiga yangi bilim beruvchi har qanday ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotga aytiladi.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlar:

- Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'ziga xos aspektlari
- Matematikadan sinfdan tashqari ishlarining shakllari
- Matematik o'n minutliklar
- Matematik to'garaklar
- Matematik olimpiadalar
- Matematik matbuot
- Matematik burchak
- Matematik ekskursiyalar
- Qiziqarli matematik



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz darsdan tashqari ishlarni tashkillashtirishda darslikda berilgan mavzularga nisbatan yaqinroq va undan murakkabroq bo'lgan misol va masalalarni olishimiz kerak. Yoki aksincha, dars jarayonini o'tmoqchi bo'lgan mavzumiz bolalarga murakkablik qilishini sezsak to'garaklar yoki matematik soatlarda darsda o'tmoqchi bo'lgan mavzumizga doir soddaroq tushunchalarni bolalarga oldindan berib borishimiz darkor. Chunki mavzu murakkabroq bo'lsa 45 daqiqalik dars davomida biz mavzuni o'quvchiga to'liq yetkazib bera olmasligimiz mumkin. Misol tariqasida, qiziqarli Matematik o'n minutliklarni tashkillashtirish uchun nimalarga e'tibor qaratis imiz kerakligini bilib olamiz :

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, eng avvalo bolalarda matematika fanini o'rgatishda matematika haqida tasavvurlarni o'rgatib borish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki matematikada dars bo'lsin, darsdan tashqari mashg'ulotlar bo'lsin, har qanday misol yoki masalani yechishda tasavvurga, tafakkurga tayanib yechim topmasam, matematik masalalarni tasavvuringizda yarata olmasak yecha olmaymiz. Bu haqida I.Y.Lerner va M.N.Skatkin ishlab chiqqan uslublar turkumlariga tayaniladi. Ushbu turkumlashda uslublar quyidagilarga bo'linadi:

- 1) tasvirli tushuntirish yoki axborot uslubi;
- 2) reproduktiv (yodda saqlash, eslash) uslubi;
- 3) muammoli ifodalash uslubi;
- 4) qisman izlanish uslubi;
- 5) izlanish uslubi.

Tasvirli tushuntirish uslubiga tayyor bilimlar va faoliyat uslublarini eslash kiradi.

Muammoli ifodalash uslubi esa matematik va aniq bilimlarni yodda saqlashni o'z ichiga oladi.

Qisman izlanish uslubida fikrlash va yodda saqlash elementlari qo'shilib keladi.

Izlanish uslubi esa ijodiy faoliyatni taxmin etadi.

Ushbu uslublar bilimlarni o'zlashtirish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi, tarbiyachilarda ijodiy faoliyat tajribasini egallashga imkon yaratadi, ularda emotsional (his, tuyg'u) madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. [5]

REFERENCES:

1. Rahmonova Nasibaxon "Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda matematika fanini o'qitish usullari"
2. L.Sh. Levenberg va boshqalar. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent: "O'qituvchi" 1985-yil.
3. Bikbayeva N. va boshqalar. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent: "O'qituvchi" 1996-yil.
4. N. Boltayev, O. Qodirov "Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar" Toshkent: "O'qituvchi" 1982-yil.
5. G.E.Djanpeisova, B.N.Xodjimuratova " Matematik tasavvurlarni shakllantirish " o'quv qo'llanma. Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo" 2021 Ziyo.uz
6. Janabergenova, A. J. (2021). Setting Goals on Smart Techniques and Affecting Student Motivation. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 9333-9336.

7. Janabergenova, A. J. (2018). Organization and Forms of Students' Independent Work on Higher Mathematics at Pedagogical University. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

8. Жанабергенова, А. Ж. (2023). Ахборотлашган таълим муҳитида талабаларнинг мустақил иш фаолияти методикасини такомиллаштириш. *Novateur Publications*, 6, 1-142.

9. Jaksılıkovna, J. A. (2022). Ta'lim jarayonini bulutli xisoblash texnologiyasi asosida tashkil etishning pedagogik omillari. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 77-82.

10. Prenov, B., & Tarkhanov, N. (2003). Kernel spikes of singular problems.

11. Barakbaevich, P. B., & Turganbaevich, O. E. (2023). Teaching to solve geometric problems using the method of vectors and coordinates. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 689-695.

12. Prenov, B. B., & Tarkhanov, N. N. (1992). Martinelli-Bochner singular integral. *Siberian Mathematical Journal*, 33(2), 355-359.

13. Prenov, B. B., & Tarkhanov, N. N. (1992). On the singular Martinelli–Bochner integral. *Sibirskii Matematicheskii Zhurnal*, 33(2), 202-205.